

INTERNETDAGI YOLG'ON XABARLAR: AXBOROT ASRINING ENG XAVFLI TUZOG'I

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti

1-kurs V patok 1-guruh talabasi

Ashiraliyev Jahongir Xurshid o'g'lining

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy internet makonida keng tarqalgan yolg'on xabarlar — ya'ni “feyk news” hodisasining mazmuni, tarqalish sabablari hamda inson psixologiyasi bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, yolg'on axborotlarning jamiyatga ta'siri, ularning turlari va ularga qarshi kurashishning samarali yo'llari yoritilgan. Muallif haqiqatni tekshirish (faktcheking), axborot savodxonligi va media madaniyatini oshirish orqali feyk xabarlarining oldini olish mumkinligini asoslaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yolg'on xabarlariga qarshi kurash texnologik emas, balki ma'naviy va aqliy savodxonlik bilan chambarchas bog'liq jarayondir.

Kalit so'zlar: internet, yolg'on xabar, feyk news, axborot savodxonligi, media madaniyat, faktcheking

Bugungi kunda internet insoniyat hayotining ajralmas qismiga aylandi. Biz xabarlarini o'qiyapmiz, videolarni tomosha qilyapmiz, ijtimoiy tarmoqlarda fikr bildiriyapmiz - **ammo bu axborotlarning barchasi haqiqatmi?** Afsuski, yo'q. Har kuni millionlab foydalanuvchilar internetda tarqalayotgan yolg'on yoki chalg'ituvchi xabarlariga duch kelmoqda. Eng xavflisi esa shundaki, bu xabarlariga ishonayotgan insonlar soni kamaygani yo'q, aksincha ortmoqda.

Yolg'on xabarlar, ya'ni “**feyk news**”larning ildizi inson psixologiyasida yotadi. Odamlar odatda o'z e'tiqodi, dunyoqarashi yoki hissiy holatiga mos bo'lgan ma'lumotga ishonishga moyil bo'ladi. *Masalan, biror siyosiy masalada kimnidir yomon ko'radigan shaxs, o'sha odam haqida salbiy, hatto mantiqsiz bo'lsa ham,*

xabarga ishonadi. Bu “**tasdiqlovchi tarafkashlik**” (**confirmation bias**) deb ataladi. Ya’ni, inson o‘z fikriga mos axborotni qabul qiladi, mos kelmaganini esa rad etadi. Natijada haqiqatdan ko‘ra, shaxsiy his-tuyg‘ular ustunlik qiladi.

Shuningdek, yolg‘on xabarlar bir xil shaklda bo‘lmaydi. Ular turli ko‘rinishlarda, turli maqsadlarda tarqatiladi. Ba’zilar kulgi yoki kinoya uchun yozilsa, boshqalari ongli ravishda odamlarni chalg‘itish yoki manipulyatsiya qilishga qaratilgan bo‘ladi. Umuman olganda, feyk xabarlarni quyidagi asosiy turlarga ajratish mumkin:

1. Manipulyativ xabarlar - bu turdagi xabarlar ma’lum faktlarga tayansa-da, ularning ma’nosi yoki konteksti o‘zgartiriladi. Masalan, rasmiy bayonotning bir qismi kesib olinadi yoki noto‘g‘ri sarlavha bilan beriladi. Maqsad — o‘quvchini ma’lum yo‘nalishda fikrlashga majburlashdir.

2. Satirik yoki kinoyaviy xabarlar - bunday xabarlar aslida hazil yoki tanqid maqsadida yoziladi. Ammo ayrim foydalanuvchilar ularni jiddiy qabul qilib, haqiqat deb o‘ylaydi. Natijada, hazil sifatida yaratilgan post ham feyk sifatida tarqalib ketishi mumkin.

3. Propaganda va siyosiy feyklar - eng xavfli turlardan biridir. Ya’ni, bu siyosiy yoki mafkuraviy maqsadda tarqatiladigan soxta axborotlardir. Ular orqali jamoatchilik fikriga ta’sir o‘tkazish, kimnidir obro‘sizlantirish yoki voqealarning asl mazmunini buzish maqsad qilinadi.

4. Soxta iqtiboslar va manbaga taqlid qilish - ko‘pincha taniqli shaxslar nomidan yozilgan soxta iqtiboslar keng tarqaladi. “Falonchi shunday degan” degan shakldagi yolg‘on so‘zlar odamlar orasida tez ishonch uyg‘otadi, chunki ular manbani ishonchli deb o‘ylaydi. Bu esa feyk xabarlarning eng ko‘p uchraydigan shaklidir.

5. Soxta vizual materiallar - bugungi kunda “deepfake” texnologiyasi yordamida yaratilgan surat va videolar ham yolg‘on axborot tarqatish vositasiga aylangan. Bunday materiallar orqali odamlar ishonchli tasvir orqali chalg‘itiladi va haqiqatni

ajratish yanada qiyinlashadi.

Yolg'on xabarlar tarqalishining yana bir sababi - tezkorlik ilinjidir. *Bugun har kim "birinchi bo'lib tarqatish" istagida yashaydi. Kimdir "shov-shuvli" postni o'qib, manbasini tekshirmasdan darhol "forward" tugmasini bosadi.* Shunday qilib, bir daqiqada yuzlab, minglab foydalanuvchilar orasida yolg'on ma'lumot aylanadi. Bu jarayonni internetning o'zi tezlashtiradi: algoritmlar eng ko'p reaksiya olgan xabarlarni yuqoriga chiqaradi. Aksariyat hollarda esa eng hissiyotga boy, eng hayratlanarli va eng kutilmagan xabarlar aynan yolg'on bo'ladi.

Ammo eng qiziq savol - **ularga kimlar ishonmoqda?** Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yolg'on xabarlariga ko'proq emotsional fikrlovchi, tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasi past bo'lgan insonlar ishonadi. Ba'zilar uchun ijtimoiy tarmoqlar yagona axborot manbaiga aylangan. Ular ko'rgan har bir postni haqiqat deb qabul qiladi, chunki "uni do'stim joylagan", "kanal ishonchli ko'rindi" yoki "barchalar yozayapti". Shunday fikrlar zahirida esa axborot madaniyatining pastligi, manbaga nisbatan befarqlik yotadi.

Yana bir omil - qo'rquv va hayajon hissidir. Inson tabiatan xavf haqida tezroq reaksiya bildiradi. **"Falokat sodir bo'ldi", "tezda ulash!"** kabi so'zlar insonni fikrlashdan ko'ra tezroq harakatga undaydi. Natijada, u xabar haqiqatmi yoki yo'qmi, bunga e'tibor bermaydi. Shu tarzda yolg'on xabarlar virusdek tarqaladi. Yolg'on xabarlariga ishonishning ijtimoiy oqibatlari esa og'ir. Ular jamiyatda ishonchsizlikni kuchaytiradi, odamlar orasida nizolarni qo'zg'atadi, hatto davlat miqyosidagi qarorlar qabul qilinishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yaqinda ko'plab mamlakatlarda soxta xabarlar sabab aholining vahimaga tushishi, dorixonalarda sun'iy navbatlar, yoki iqtisodiy talvasa holatlari kuzatildi. Bularning barchasi bitta **"tekshirilmagan post"**dan boshlanganini esdan chiqarmaslik kerak. Haqiqatni yolg'ondan ajratish uchun inson faqat texnologik emas, balki aqliy savodxon ham bo'lishi zarur. Har bir o'qilgan xabar ortida savol tug'ilishi lozim: *bu ma'lumotning manbasi kim, dalil bormi, boshqa mustaqil manbalar ham shunday deydimi?* Fikr

bildirishdan yoki ulashishdan oldin bir daqiqa o'ylash - bugungi zamonda eng katta mas'uliyatdir. Aslida, internetning o'zi yomon emas. Yomonlik - uni qanday ishlatayotganimizda. Internet insonni bilimli, xabardor, fikrli qilish uchun yaratilgan, ammo agar biz tekshirmasdan ishonishni davom ettirsak, u bizni chalg'ituvchi, hissiyotga beriluvchan va boshqariluvchi jamiyatga aylantiradi.

Yolg'on xabarlar muammosini faqat texnologiya yoki qonunlar yordamida hal qilib bo'lmaydi. Bu, avvalo, inson tafakkuri, ong darajasi va axborot madaniyati bilan chambarchas bog'liq masaladir. Shuning uchun feyk axborotlarga qarshi kurash ko'p yo'nalishli axborot, ta'lim, texnologik va huquqiy mexanizmlarni o'z ichiga olgan jarayon bo'lishi kerak. Avvalo, faktcheking madaniyatini shakllantirish muhimdir. Har bir foydalanuvchi o'qigan xabarining manbasini tekshirishni odat qilishi lozim: ma'lumotni kim yozgan, qaysi manbaga tayangan, boshqa mustaqil axborot vositalari ham shu fikrni tasdiqlayaptimi ularni tahlil qilish kerak. Hozirda **Factcheck.uz**, **StopFake.org** kabi saytlar aynan shu maqsadda faoliyat yuritib, yolg'on xabarlarni fosh etishda muhim rol o'ynamoqda. Shuningdek, media va axborot savodxonligini oshirish bugungi kunda eng samarali vositalardan biridir. Chunki feyklar eng ko'p axborot madaniyati past bo'lgan foydalanuvchilar orasida tarqaladi. Shu bois ta'lim tizimida tanqidiy fikrlash, mustaqil tahlil qilish, ishonchli manbani ajratish kabi ko'nikmalarni o'qitish dolzarb ahamiyatga ega. O'zbekistonda ham "Axborot gigiyenasi" kabi loyihalar orqali bu yo'nalishda muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Yana bir muhim yo'l — texnologik yechimlardan foydalanish. Ijtimoiy tarmoqlar algoritmlari orqali feyk kontentni aniqlash, tekshirilmagan postlarni pastga tushirish yoki ularni "fact-check" belgisi bilan belgilash — foydalanuvchilarni chalg'itmaslikka xizmat qiladi. Masalan, Facebook va Instagram platformalarida bunday tizimlar allaqachon joriy etilgan.

Bundan tashqari, huquqiy choralarni kuchaytirish ham zarur. O'zbekistonda "Axborot sohasida dezinformatsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqilayotgani bejiz emas. Mazkur hujjat axborot maydonini

sog'lomlashtirish, yolg'on xabar tarqatgan shaxslarga nisbatan javobgarlikni kuchaytirish va jamiyatda ishonchni mustahkamlashni maqsad qilgan.

Eng asosiysi esa jamoaviy mas'uliyatni shakllantirish. Har bir foydalanuvchi "ulashish" tugmasini bosishdan oldin bir lahza o'ylashi, har bir so'z ortida mas'uliyat borligini anglab yetishi kerak. Chunki birgina tekshirilmagan xabar nafaqat bir insonni, balki butun jamiyatni chalg'itishi mumkin.

Demak, muammo texnologiyada emas, balki ongda. Haqiqatni izlash, yolg'on xabarlarni fosh etish - bu har bir foydalanuvchining fuqarolik burchidir. Chunki haqiqat uchun kurash, bugungi raqamli dunyoda, so'zni to'g'ri tanlay bilishdan boshlanadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar ro'yxati:

1. Wardle, C., & Derakhshan, H. (2017). Information Disorder: Toward an Interdisciplinary Framework for Research and Policymaking. Council of Europe Report.
2. Tandoc, E. C., Lim, Z. W., & Ling, R. (2018). Defining "Fake News": A Typology of Scholarly Definitions. *Digital Journalism*, 6(2), 137–153.
3. UNESCO. (2022). Journalism, "Fake News" and Disinformation: Handbook for Journalism Education and Training. Paris: UNESCO Publishing.
4. Vosoughi, S., Roy, D., & Aral, S. (2018). The Spread of True and False News Online. *Science*, 359(6380), 1146–1151.
5. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. (2023). "Axborot sohasida dezinformatsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun loyihasi. Toshkent.
6. BBC News Uzbek. (2024, may). Feyk xabarlarni qanday aniqlash mumkin?
7. Gazeta.uz. (2024, iyun). Internetdagi yolg'on xabarlar — jamiyat uchun xavfli signal.